

KICHIK BIZNES BARQAROR RIVOJLANISHINING MIKROIQTISODIY ASOSLARI

Adashev Azimjon Urinboyevich

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedrası dotsenti

E-mail: azimray@mail.ru

Аннотация

Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining mikroiqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy o‘shish, bandlikni ta‘minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududiy rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilindi. Namangan viloyati misolida kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va qurilish tarmoqlaridagi faoliyati statistik ma‘lumotlar asosida baholandi. Tadqiqot natijalarida kichik biznesning barqaror rivojlanishi inson kapitali, innovatsion faoliyat, boshqaruv sifati va resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liqligi asoslandi. Kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish va institutsional muhitni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, mikroiqtisodiyot, inson kapitali, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, Namangan viloyati, ishlab chiqarish, bandlik.

Аннотация

В данной статье исследованы микроэкономические основы устойчивого развития малого бизнеса и частного предпринимательства. В ходе исследования проанализирована роль малого бизнеса в обеспечении экономического роста, занятости населения, повышении производственной эффективности и региональном развитии. На примере Наманганской области на основе статистических данных оценены доля малого бизнеса в валовом региональном продукте, а также его деятельность в промышленности, сельском хозяйстве и строительстве. Результаты исследования показали, что устойчивое развитие малого бизнеса связано с человеческим капиталом, инновационной активностью, качеством управления и эффективным использованием ресурсов. Разработаны научные выводы по поддержке субъектов малого бизнеса, развитию управленческих компетенций и совершенствованию институциональной среды.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, устойчивое развитие, микроэкономика, человеческий капитал, экономическая эффективность, инновации, Наманганская область, производство, занятость.

Abstract

This article examined the microeconomic foundations of sustainable development of small business and private entrepreneurship. The study analyzed the role of small business in economic growth, employment, production efficiency and regional development. Using the example of Namangan region, the share of small business in gross regional product and its activity in industry, agriculture and construction were evaluated based on statistical data. The findings showed that sustainable development

of small business was associated with human capital, innovation activity, management quality and efficient use of resources. Scientific conclusions were developed on supporting small business entities, improving managerial competencies and strengthening the institutional environment.

Keywords: small business, entrepreneurship, sustainable development, microeconomics, human capital, economic efficiency, innovation, Namangan region, production, employment.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobat muhitining kuchayishi, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va resurslardan samarali foydalanishga boʻlgan talabning ortishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi oʻrnini yanada mustahkamlamoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes subyektlari iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantirishning muhim omili sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, kichik biznesning moslashuvchanligi, kam xarajat bilan faoliyat yuritish imkoniyati va bozor talablariga tez moslasha olishi uning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini oshirmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi kichik biznes iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, innovatsiyalarni joriy etish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim oʻrin tutishini koʻrsatmoqda. Kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan taʼminlash orqali milliy iqtisodiyot rivojlanishiga sezilarli hissa qoʻshmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes aholining bandligini taʼminlash va ijtimoiy muammolarni kamaytirishda ham muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Oʻzbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, biznes yuritish uchun qulay institutsional muhit yaratish, soliq va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish boʻyicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati bosqichma-bosqich ortib bormoqda.

Kichik biznesning barqaror rivojlanishi mikroiqtisodiy omillar bilan bevosita bogʻliq boʻlib, bunda inson kapitali, boshqaruv sifati, innovatsion faoliyat, resurslardan samarali foydalanish va bozor mexanizmlariga moslashuv darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini taʼminlash masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining mikroiqtisodiy asoslari oʻrganilib, Namangan viloyati misolida iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlil qilindi hamda kichik biznes samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri sifatida ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Klassik iqtisodiyot vakillari A.Smit va J.B.Sey tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarish omillarini samarali birlashtiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida baholagan [1]. Y. Shumpeter esa tadbirkorlikni innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlagan [1].

Xorijiy tadqiqotlarda kichik biznesning iqtisodiy samaradorligi, bandlikni ta‘minlash va bozor muhitiga moslashuvchanligi alohida o‘rganilgan. R.M. Hodgetts va D.F. Kuratko kichik biznes subyektlarining boshqaruv sifati hamda strategik qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini asoslagan [3]. Reinecke va White tadqiqotlarida kichik biznesni rivojlantirish uchun institutsional muhit, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va infratuzilma muhim omil sifatida baholangan [4].

M. Diao, J. Kweka va M. McMillan ilmiy ishlarida kichik korxonalar iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlar va mehnat unumdorligini oshirishda muhim rol o‘ynashi qayd etilgan [5]. Z.A. Yusof va D. Bhattasali tadqiqotlarida esa iqtisodiy o‘shishda innovatsion boshqaruv va tadbirkorlik siyosatining ahamiyati yoritilgan [6].

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham kichik biznesning barqaror rivojlanish masalalari keng tadqiq etilgan. A.O‘.Adashev ilmiy ishlarida korxonalarining innovatsion rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshirishning tarkibiy asoslari tahlil qilingan [9]. A.U. Adashev va A. Askaraliyev iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini zamonaviy yondashuvlar asosida baholash zarurligini asoslab bergan [10].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar kichik biznesning barqaror rivojlanishi inson kapitali, innovatsion faoliyat, boshqaruv sifati va resurslardan samarali foydalanish bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududiy iqtisodiy rivojlanishda kichik biznesning ulushini oshirish uchun institutsional qo‘llab-quvvatlash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining mikroiqtisodiy asoslarini o‘rganishda tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi hamda yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini Namangan viloyati statistika ma‘lumotlari, iqtisodiy hisobotlar, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tahlil davomida gorizontal va qiyosiy tahlil usullari yordamida 2021-2025 yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasi baholandi.

Kichik biznes faoliyatining barqaror rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar — inson kapitali, boshqaruv sifati, innovatsion faollik va resurslardan foydalanish samaradorligi mikroiqtisodiy yondashuv asosida o‘rganildi. Olingan natijalarni umumlashtirishda tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mikroiqtisodiy nuqtai nazardan kichik biznes barqaror rivojlanishi foyda maksimallashtirishdan ko‘ra kengroq mazmunga ega. An’anaviy mikroiqtisodiy modellarda firmaning maqsadi foydani maksimallashtirish deb qaralsa, zamonaviy yondashuvlarda barqarorlik, risklarni diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli qiymat yaratish ustuvor hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari uchun bu ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish, xarajatlarni nazorat qilish, innovatsion faollikni oshirish orqali amalga oshiriladi.

SHu bilan birga, kichik biznesda qarorlar qabul qilish jarayoni ko‘pincha tadbirkorning shaxsiy kompetensiyasi, bilim va tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa inson kapitali va boshqaruv salohiyatini barqaror rivojlanishning muhim iqtisodiy omili sifatida qarashni taqozo etadi. Demak, tadbirkorlik barqarorligi faqat moddiy resurslar bilan emas, balki noan’anaviy omillar bilan ham belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda barqaror rivojlanish va samaradorlik o‘rtasidagi munosabatlar turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilarga ko‘ra, barqarorlik xarajatlarni oshiradi va qisqa muddatda foydani kamaytiradi. Biroq kichik biznes misolida bu qarash to‘liq o‘zini oqlamaydi. Aksincha, barqaror rivojlanishga qaratilgan strategiyalar uzoq muddatda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish, resurslarni tejash, innovatsiyalarga investitsiya kiritish avval boshda qo‘shimcha xarajat talab qilsa-da, kelgusida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik va kichik biznes barqaror rivojlanishining iqtisodiy mohiyatini “qisqa muddatli foyda” emas, balki “uzoq muddatli iqtisodiy qiymat yaratish” kategoriyasi orqali izohlash maqsadga muvofiqdir.

1-jadval.

Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha ma‘lumot¹

№	Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1	Kichik biznes subyektlarining YaHMdagi ulushi	76,1	74,6	74,0	73,9	73,6
2	Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik	26500	28900	32300	19500	22500

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, 2021-yilda kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi Namangan viloyatida 76,1 %, 2025-yilda esa 73,6 % ni tashkil etib, bu viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tarkibiy o‘zgarishlar asosida tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishda Namangan viloyati oldingi o‘rinlardan joy olgan.

2025-yilda Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

mikrofirmalar soni o'tgan 2021-yilga nisbatan 4000 taga kamayib, 22500 tani tashkil etgan. Albatta, bu shundan dalolat beradiki faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish bo'yicha islohotlarni hududlarda ham yanada izchil amalga oshirish kerakligi bilan izohlanadi.

Namangan viloyatida bu borada olib borilayotgan ishlarni tanqidiy ruhda tahlil etilganda, ayrim hato va kamchiliklar, foydalanilmagan mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmaslik holatlari ham aniqlangan bo'lib, unda yangi sanoat korxonalarini tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish dasturi ijrosi tizimli tashkil

Namangan viloyatida yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushini bu darajada yuqoriligi ushbu sohaning ishlab chiqarishdagi mohiyati, iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati mezonlariga e'tibor qaratilganligi hamda tarkibiy o'zgarishlar asosida faoliyatni samarali tashkil etilganligidan deb qarash maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy-tarkibiy jihatdan u tarmoq tuzilishini belgilab, ichki bozorni talab va taklif asosida tovar va xizmatlar bilan to'ldiradi;
- ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qishloq aholisining asosiy qismini ish joylari hamda barqaror daromad manbai bilan ta'minlaydi, aholi turmush darajasini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi;
- ishlab chiqarish va ish joylarini ko'p mablag' talab qilmasdan qayta tashkil etish hamda jihozlashga imkon beradi;
- ijtimoiy-psixologik jihatdan oilada mehnat ko'nikma va an'analari avloddan-avlodga o'tishini, mahsulot yetishtirish madaniyati, mahorati hamda sir-asrorlarini egallash jarayoni davom etishini ta'minlaydi.

2-jadval.

Namangan viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy tarmoqlarda amalga oshirilgan ishlari hajmi¹, mlrd. so'm

T/R	Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1.	Sanoat mahsulotlari hajmi	7174,3	8 112,68	10133,7	11454,8	22154,4
2.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi	22671,5	26 208,5	30915,6	32497,2	38787,9
3.	Qurilish ishlari hajmi	5247,9	6 069,8	6722,4	12298,2	14237,3


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, hududlarning ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan yanada to'liq foydalanish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, ichki bozorni mahalliy tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish, shu asosda aholi bandligi hamda daromadini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida uning iqtisodiy tarmoqlardagi ulushi ortib bormoqda (2-jadval).

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Namangan viloyatida 2025-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

chiqarish hajmi 2021 yilga nisbatan 14980,1 mlrd so‘mga oshib 22154,4 mlrd. so‘mga yetkazildi. Hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha, Namangan viloyatida amalga oshirilgan ishlar hajmi o‘tgan davrga nisbatan 32,3 foizga oshishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining lokomotivi bo‘lgan sanoat tarmoqlarida kichik korxonalarining ahamiyatini ortib borishiga olib keldi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini samaradorligini oshirishda yana bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ulardan boshqaruv darajasini pastligi, bilim, tajriba va bozor munosabatlari madaniyatining yetishmasligi natijasida yangi tashkil etilgan korxonalarni ko‘p vaqt o‘tmasdan yopilishi kutiladi.



1-rasm. Namangan viloyatida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi¹

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2025 yilda yanvar-dekabr holatiga eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 1718 ta), sanoat sohasida (622 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (594 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (294 ta) tashkil etilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini rivojlanganligi va biznesni yuritish shart-sharoitlarini kengaytirilgani, erkin bozor iqtisodiyoti talablariga hamda korxonalarining faoliyati bilan bog‘liq tartib-tamoyillarning barcha turlarini qisqartirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirilganligi bilan izohlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi mikroiqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tahlillar kichik biznes subyektlari iqtisodiy o‘rni ta’minlash, aholi bandligini oshirish, hududiy ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishda muhim o‘rin egallashini tasdiqladi. Namangan viloyati misolida olib borilgan tahlillar kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi

¹ Namstat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

yuqori darajada saqlanayotganini va sanoat, qishloq xo'jaligi hamda qurilish tarmoqlarida faol rivojlanayotganini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida kichik biznes barqaror rivojlanishida inson kapitali, boshqaruv sifati, innovatsion faollik va resurslardan samarali foydalanish asosiy omillar ekani aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda boshqaruv tajribasi va bozor ko'nikmalarining yetarli emasligi sababli faoliyat samaradorligi pasayishi kuzatilishi qayd etildi. Bu esa kichik biznes subyektlarini institutsional va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- kichik biznes subyektlari uchun zamonaviy boshqaruv va marketing ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlarini kengaytirish;
- innovatsion texnologiyalar va energiya tejamkor uskunalarni joriy etishni rag'batlantirish;
- hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini kengaytirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish;
- kichik biznes faoliyatini monitoring qilish va baholashning zamonaviy tizimlarini joriy etish.

Taklif etilgan yondashuvlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, A. (1776/1979), *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*, London: Methuen and Co.; Schumpeter, Joseph A. (1949), "Economic theory and entrepreneurial history", Landström, H. (2005), *Pioneers in Entrepreneurship and Small Business Research*, New York: Springer.

2. CHyorniy L., Baldich N. (2016) *Entrepreneurship Development Strategy: Expert Opinion*; Anya O.A. (2003) *Empowering Small and Medium Scale Enterprises in Nigeria* Enugu: CIDAP PRINTING PRESS; Hoselitz B.F. (1954) *The Early History of Entrepreneurial Theory Exploration in Entrepreneurial History*; Harris M. (2000)

3. *The Current Situation of Small and Medium-sized Industrial Enterprises in Trinidad & Tobago, Barbados & St. Lucia*. *Desarrollo Productivo*, 69, United Nations, ECLAC: Santiago, Chile; Hodgetts, R.M., & Kuratko D.F. (2002).

4. *Effective Small Business Management*. Dryden Press; Reinecke, R., & White, S. (2004). *Policies for Small Enterprises: Creating the Right Environment for Jobs*. International Labour Organisations; Samuel Nicholas Lochan (2004).

5. *Entrepreneurship: A challenge Facing the Education System of Trinidad & Tobago*. PhD Thesis (UWI); Diao, XS (Diao, Xinshen), Kweka, J (Kweka, Josaphat), McMillan, M (McMillan, Margaret) *Small firms, structural change and labor productivity growth in Africa: Evidence from Tanzania*. Conference on Structural Transformation of African Agriculture and Rural Spaces (STAARS); U.Venesaar. *Entrepreneurship and small business research in Estonia: an overview*; Z.A.Yusof,

D.Bhattasali. (2008)

6. Economic Growth and Development in Malaysia: Policy Making and Leadership D.Bhattasali. (2008) Economic Growth and Development in Malaysia: Policy Making and Leadership.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-yil

9. Adashev A. O‘. Korxonalarda innovatsion rivojlanishining tarkibiy asoslari //Nauchnoe znanie sovremennosti. - 2017. - №. 4. - S. 8-12.

10. Адашев А. У., Аскаралиев А. Современные подходы к показателям и тсенностям экономического развития //Теория и практика современной науки . - 2017. - №. 2. - S. 28-30.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**